

INFLYATSIYA VA UNING IQTISODIY TA'SIRI

Umirov A. T.

Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasи

Toshkent Iqtisodiyot Universiteti, Dotsent PhD

Irisbayev A. A.

BIA-70 guruh

Toshkent Iqtisodiyot Universiteti, talaba

Annotatsiya: Ushbu tezisda inflyatsiya, uning mohiyati, turlari, ichki va tashqi omillari, inflyatsianing mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri, uni oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlar majmui haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Inflyatsiya, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, sudraluvchi inflyatsiya, shiddatli inflyatsiya, giperinflayatsiya, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, inflyatsiyaga qarshi kurash, monetar siyosat, xo'jalik faoliyati, iqtisodiy inqiroz, kredit.

Inflyatsiya mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiylar darajasining oshishi (o'sishi) tushuniladi. Narxlarning umumiylar darajasi ko'tarilishi natijasida mamlakat pul birligi (milliy valyuta) xarid qobiliyatining pasayishi ro'y beradi.¹ Bu esa o'z navbatida, davlat pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi. Inflyatsiya mohiyati shundan iboratki, ayni paytda uning boshlanishidan oldin bir xil pulga nisbatan mol-mulkni kamroq sotib olish mumkin bo'ladi. Bu so'z XIX asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy termin sifatida ishlataligunga qadar, u tibbiyotda xavfli o'sma kasalligini ifodalashda qo'llanilgan. Tarix haqiqatdan ham bu so'zning har tomonlama xavfli ekanligini ko'rsatdi. Chunki inflyatsiya qandaydir alohida olingan bozorlarda tovarlar va xizmatlar narxining o'shidangina iborat bo'lmasdan, bu umumiqtisod uchun xavfli hodisadir.²

Inflyatsianing turlari:

Sudraluvchi inflyatsiya (mamlakatda inflyatsiya darajasi 5 – 10%

bo'lgan holatda kuzatiladi);

Shiddatli inflyatsiya (inflyatsiya darajasi 10 – 100%, ba'zan, 200% gacha bo'lgan holatlarda kuzatilishi mumkin);

Giperinflayatsiya (inflyatsiya darajasi 200% dan yuqori bo'lgan vaziyatda namoyon bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, giperinflayatsiyaga misol tariqasida 1923 – yillarda Germaniyada yuzaga kelgan inflyatsiyani keltirib o'tishimiz mumkin);

¹ <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/concept-of-inflation/>

² A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev "Pul va banklar" darslik

Talab inflyatsiyasi. (Inflyatsiyaning bu an'anaviy turi talab oshib ketganda yuzaga keladi. Ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifiga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovarlar bahosi o'sadi. Kam miqdordagi tovarlar ko'p pul massasiga to'g'ri keladi);

Ishlab chiqarish bilan bog'liq (taklif) inflyatsiya. (Har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi).³

Inflyatsiyaning ichki omillari monetar – pul siyosati bilan va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq turlarga bo'linadi. Xo'jalik faoliyati bilan bog'liq omillar bu xo'jalik va iqtisoddagi mutanosiblikni buzilishi, ishlab chiqarishda yakka hukmronlikka yo'l qo'yish, iqtisodning siklik rivojlanishi, investitsiyalashda nomutanosiblik, baholarni tashkil qilishda davlatning yakka hokimligi, kredit siyosatining noto'g'ti olib borilishi va boshqalar hisoblansa, pul bilan bog'liq omillarga davlat moliyasi sohasidagi kremlar, davlatning byudjet defitsiti, davlat qarzlarining o'sishi, pul emissiyasi, pul muomalasi qonunining buzilishi, kreditlashda avtomatizmga yo'l qo'yish va boshqalar kiradi.

Inflyatsiyaning tashqi omillariga jahon iqtisodiyotida bo'lgan kremlar, (xom – ashyo, yoqilg'i, valyuta bo'yicha) davlatning valyuta siyosati, davlatning boshqa davlatlar bilan tashqi iqtisodiy faoliyati, oltin va valyuta zaxiralari bilan bo'ladigan noqonuniy operatsiyalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Inflyatsiya iqtisodiyotni vayron qilish darajasigacha ta'sir qilishi mumkin.

Inflyatsiya sharoitida: Eng avvalo pul birligi qadrsizlanadi; Tovarlardagi narxlar mutanosibligi buziladi; Xaridor va sotuvchilar u yoki bu qarorni aniq qabul qilishga ikkilanadilar; Katta investitsiyalar qilish xavf-xatari oshadi; Tadbirkorlar qisqa muddatli qarorlar va harakatlar bilan cheklanib qolishadi; Shaxsiy jamg'armalar o'z qadrini yo'qotadi; Aktsiyalar, obligatsiyalar, cheklar, veksellar, sertifikatlar, sug'urta polislarining real qiymati pasayadi. Kam ta'minlangan aholi yanada qashshoqlashadi; Mehnat qilish va tadbirkorlikning rivojlanishiga karaganda ish haqi tezroqqadrsizlanadi. Xullas, inflyatsiya bozor jarayonini tartibsizlantirib, ham ishlab chiqarishni, ham istemolni izdan chiqaradi, aholining turmush darajasini keskin pasaytiradi, jamiyatda sotsial tanglikni vujudga keltiradi.

Inflyatsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishni uzoq muddatli va qisqa muddatli siyosat bilan qo'shib olib borish kerak. Uzoq muddatli siyosat quyidagilarni o'z ichiga oladi: Soliq tizimini takomillashtirish hamda davlatning xarajatlarini kamaytirish hisobiga byudjet taqchillagini qisqartirish choralarini ko'rish; Pul muomalasi sohasidagi tadbirlar, xususan pul massasi o'sishining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng yuqori mezonlarini, pul massasi o'sishining har yilgi qat'iy limitlarini belgilash; Inflyatsiyani avj oldiruvchi tashqi omillarni bartaraf etish, xususan hukumat byudjet taqchillagini moliyalashtirish maqsadida chet eldan qisqa muddatli kreditlar va qarzlar olish yo'li bilan iqtisodiyotga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish, bu kreditlar va qarzlarni konvertatsiyalash hamda shu summaga milliy valyutaning qo'shimcha massasini chiqarish.

³ ifn.dots. I.Sayfiddinov "Inflyatsiya va uning turlari, pulning barqarorligini ta'minlash yo'llari"

Inflyatsiyaga qarshi qisqa muddatli siyosat inflyatsiya sur'atlarini vaqtincha pasaytirib turishga qaratilgan bo'lib, u quyidagilarni qamrab oladi:

Jami talab oshmagan holda tovarlar va xizmatlarni qo'shimcha ishlab chiqarishni rag'batlantirish hisobiga, iste'mol tovarlarini ko'plab miqdorda import qilish, korxonalarining kata miqdordagi aksiyalarini sotish hisobiga

jami taklifni kengaytirish; Sug'urtalash va jamg'arishni rag'batlantirish.⁴

Xulosa qilib aytganda, inflyatsiya mamlakat hududida pul birligi qadrsizlanganda yuzaga keladi. Va albatta uni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha hukumatimiz hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomidan yuqorida keltirib o'tilgan kerakli chora – tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati:

- 1.A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev "Pul va banklar" darslik
- 2.ifn.dots. I.Sayfiddinov "Inflyatsiya va uning turlari, pulning barqarorligini ta'minlash yo'llari"
- 3.<https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/concept-of-inflation>
- 4.[https://1ppa.ru/uz/kniga-dohodov-i-rashodov/socialno-ekonomicheskie- posledstviya-inflyacii-i-antiinflyacionnaya/](https://1ppa.ru/uz/kniga-dohodov-i-rashodov/socialno-ekonomicheskie-posledstviya-inflyacii-i-antiinflyacionnaya/) "Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va inflyatsiyaga qarshi siyosat. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va inflyatsiyaga qarshi siyosatning asosiy yo'nalishlari Inflyatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari inflyatsiyaga qarshi siyosat."

⁴ [https://1ppa.ru/uz/kniga-dohodov-i-rashodov/socialno-ekonomicheskie- posledstviya-inflyacii-i-antiinflyacionnaya/](https://1ppa.ru/uz/kniga-dohodov-i-rashodov/socialno-ekonomicheskie-posledstviya-inflyacii-i-antiinflyacionnaya/) "Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va inflyatsiyaga qarshi siyosat. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va inflyatsiyaga qarshi siyosatning asosiy yo'nalishlari Inflyatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari inflyatsiyaga qarshi siyosat."